

FENTEZI ASARLARIDA TIL VA USLUB MASALALARI

Ruzigul Qosimova Shuxrat qizi

Email: ruzigulqosimova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada fentezi asarlarga xos bo‘lgan xususiyatlardan syujet hamda til bilan bog‘liq masala tahlilga tortildi. Syujet chiziqlarini hosil qilishda fentezi asarga hos bo‘lgan muhit yaratilgan. Maqolada J. Roulingning “Garri Potter” turkum asari tanlangan.

Annatation: In this article, among the characteristics of fantasy works, the issue related to the plot and language was analyzed. An atmosphere characteristic of a fantasy work was created in the creation of plot lines. "Harry Potter" series by J. Rowling is selected in the article.

Аннотация: В данной статье среди характеристик произведений фэнтези проанализирован вопрос, связанный с сюжетом и языком. В создании сюжетных линий создана атмосфера, характерная для фэнтезийного произведения. В статье выбрана серия «Гарри Поттер» Дж. Роулинг.

Kalit so‘zlar: fentezi, asar tili, syujet, personaj, kompozitsion, arxaizm, neologizm, dialektizm.

Key words: fantasy, language of the work, plot, character, composition, archaism, neologism, dialectism.

Ключевые слова: фэнтези, язык произведения, сюжет, персонаж, композиция, архаизм, неологизм, диалектизм.

Adabiyotshunoslikda janr va uslub eng murakkab kategoriyalardan biri hisoblanadi. Ana shu ma’nodagi badiiy asar tilining ta’sirchanligi, ohangdorligi masalasini o‘rganish adabiyotshunoslik fanining asosiy mohiyatini tashkil etadi. Badiiy asar tili bilan shug‘ullanish XIX asrda boshlangan edi. Masalan, italyan tilshunosi Benedetto Croce’ning fikricha, estetik kategoriyalar individual bo‘lganidek, badiiy asar tili bilan bog‘liq lingvistik kategoriyalar ham individuallik kasb etadi. Chunki badiiy asar individual shaxs (yozuvchi, shoir yoki dramaturg) ning o‘z nutqiy faoliyati mahsulidir. Badiiy asarda til o‘zining insonlar orasida aloqa quroli vazifasini to‘la saqlagan holda o‘zining ekspressiv funksiyasini namoyon etadi. Badiiy til umumxalq tili va adabiy til bilan o‘zaro munosabatda bo‘lsa-da, farqli tomonlarga ham

egadir.¹ Til badiiy -adabiyotning birinchi elementi, obraz yaratishdagi asosiy quroli sanaladi. Badiiy asarda muallif nutqi va bayonchi nutqi o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Personajlar nutqini tipiklashtirish va individuallashtirishning badiiy asarda o‘ziga xos mezonlari va tamoyillari mavjud. Arxaizm, neologizm, dialektizm kabi leksik vositalar, omonim, sinonim, antonim va paronim singari so‘zning shakl hamda ma’no munosabatiga ko‘ra turlari badiiy asarlarda muhim uslubiy funkciyalarga egadir. Umuman olganda, adabiy til taraqqiyotida mashhur, talantli yozuvchilarning alohida o‘rni bor. Badiiy asar tili va uslubi masalalari deb nomlangan tanlanma fanda ana shu muammolar xususida fikr yuritiladi, filolog talabalarga badiiy asar tili xususiyatlarini mustaqil tahlil qila olish ko‘nikmalarini singdirishga alohida e’tibor qaratiladi. Bu tanlanma fan badiiy asarning g‘oyaviy-estetik qiymatini belgilashda til vositalarining o‘rni va ularni o‘rganish usullari haqida talabalarga ixcham va asosli ma’lumotlar beradi. Shubhasiz, badiiy asarda kompozitsiya u yoki bu ijodiy ishning ketma-ketligini, mantiqiy davomiyligini tartibga keltiruvchi asosiy belgilardan biridir. Kompozitsiya lotin tilidan olingan bo‘lib, compositio ijod, asar degan ma’noga ega. Kompozitsia har qanday badiiy asarning asosiy qismlaridan biri bo‘lib, ijod mahsuliga yagona birlik va umumiylikni taqdim etadi, uning elementlarini bir-biriga mos kelishini ta’minlaydi. Badiiy klassik adabiyotda eng ko‘p tarqalgan kompozitsion tur bu rivojlanish (oshib borish, o‘shish) kompozitsiasi hisoblanadi, u bir nechta murakkab jarayonlarni o‘z ichiga oladigan komponentlardan iboratdir.

Syujet (fransuzcha - sujet predmet, mazmun) - adabiy asarda tasvirlangan harakatning mazmunini ifodalovchi voqealar sistemasi, aniq voqealar tizmasida namoyon bo‘ladigan harakatlar tarixidir. Badiiy asar tarkibida so‘zlar hamda iboralar sehrli va maftunkor raqqosalarga o‘xshaydi, degan edi mashhur rus yozuvchisi M. Prishvin. So‘zlar va iboralardagi ana shunday xususiyatni to‘g‘ri anglash va ularning estetik qiymatini haqqoniy izohlash maqsadida “Badiiy asar tili va uslubi masalalari” tanlanma fani oliy o‘quv yurtlari o‘zbek filologiyasi fakulteti o‘quv dasturiga kiritilgan.² Epistolyar adabiyotda so‘z va gaplar obraz, manzara yaratishning o‘ziga xos libosi, materialidir. Talantli yozuvchilarning qalami sehri ostida so‘zlar hayotdagi narsa va hodisalarni inson ongida aniq tiklaydigan, gavdalantiradigan vositadir. Badiiy nutq faqat ko‘chma ma’nodagi so‘zlarning qo‘llanilishidan iborat matn bo‘lmay, majoziy

¹ Yo‘ldoshev B, Qurbonov T. Badiiy asar tili va uslubi masalalari. Samarqand. 2006. B.88.

² Doniyorov X, Yo‘ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. Toshkent: Fan. 1988. B.71.

vositalar badiiy nutqning o‘ziga xos yordamchi vositasidir. Badiiy asarda leksik va frazeologik vositalarning obrazlar xatti-harakatini, ularning boshqa obrazlar bilan munosabatini ko‘rsatishdagi roli hisoblanadi. Badiiy nutq muallif nutqi, personajlar nutqi va hikoyachi bayonidan iborat matndir. Muallif nutqi va personajlar nutqining o‘zaro aloqadorligi badiiy nutq uslubiyatining markaziy muammolaridan biridir.

Badiiy asar tili- obrazli til. Yozuvchi o‘z asarida bir qancha yo‘llar bilan tilning obrazligiga, tasiriyligiga erishadi. Shulardan biri maxsus badiiy tasviriy vositalarini, maxsus leksik pesurslarni, poetik figuralarni, so‘z o‘yinlarini mohirona qo‘llash yo‘li bilan asar tilining obrazlilikiga erishishdir. Badiiy asar tilining poeyikligi, obrazliliigi, tasviriyligi asar g‘oyasini, shuningdek qahramon xarakterini jozibali qilib ochishga xizmat qiladi.³ Badiiy asar tili ko‘plab o‘xshatish va tasviriy vositalarga boy bo‘ladi va his tuyg‘uga to‘la bo‘ladi, ilmiy asar tili esa teskarisi. Unda aytilayotgan fikr jo‘n, sodda, hech qanday odamni to‘lqinlantiradigan so‘z tasviri ishlatilmaydi. Badiiy asar tilining asosiy maqsadi go‘zallik qonuniyatlariga muvofiq dunyoni rivojlantirish, badiiy asar muallifining ham, o‘quvchining ham estetik ehtiyojlarini qondirish, badiiy tasvirlar yordamida o‘quvchiga estetik ta’sir ko‘rsatishdir. Umuman badiiy adabiyot tilining xususiyatlari bir necha omillar bilan belgilanadi. U keng metafora bilan ajralib turadi, deyarli barcha darajadagi til birliklarining obrazliliigi, barcha turdagi sinonimlardan foydalanish, polememiya, so‘z boyligining turli uslublari kuzatiladi. Badiiy uslubda (boshqa funktsional uslublar bilan solishtirganda) so‘zni idrok etish qonuniyatlari mavjud. So‘zning ma’nosi ma’lum darajada muallifning maqsadga muvofiqligi, badiiy asarning janri va kompozitsion xususiyatlari bilan belgilanadi, birinchidan, ma’lum bir adabiy asar kontekstida lug‘atlarda yozilmagan badiiy noaniqlikni qo‘lga kiritishi mumkin, ikkinchidan, uni saqlab qoladi ushbu asarning mafkuraviy va estetik tizimi bilan bog‘liqligi biz tomonidan chiroyli yoki chirkin, ulug‘vor yoki poydevor, fojiali yoki kulgili deb baholanadi.⁴

Har bir ijod ahlining boshqalardan farq qiluvchi o‘z tili va uslubi bor. Adabiyotshunoslik ilmida iste’dodli yozuvchilar har bir davr uchun unutilmas hodisa bo‘lib, ular uslubining takrorlanmas jihatlari bilangina adabiyotda o‘zlarining munosib o‘rniga ega bo‘lganlar. Badiiy asar ustida qilingan uzoq va mashaqqatli mehnat, tinimsiz qayta ishlash jarayonlari malaka va mahoratni shakllantiradi, o‘ziga xos

³ Vinogradov V. O teori xudojestvennoy rechi. –M., 1971. –S. 105-211.

⁴ Umurov H. Adabiyot qoidalari. Toshkent: O‘qituvchi. 2002. B.5-8

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 10. October 2024

uslubni barpo etadi. Boshqalarning xayoliga ham kelmagan badiiy kashfiyotlar, estetik qamrovning tasavvur qilib bo‘lmaydigan darajada kengligi, tasvirning favqulodda o‘ziga xosligi, estetik idealning samoviyliigi, obrazlar talqinidagi originallik malaka va mahorat bilan birga, iste’dod tabiatning ilohiy mohiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Yolg‘on fikr, noaniq niyat va yetilmagan e’tiqod sof badiiy asarning, ayniqsa, uslubning kushandalari bo‘lib, bunday uslub yaxlit butunlikka ega bo‘lmaydi. Yozuvchining shaxsiyati, dunyoqarashi va tabiati badiiy ijod garmoniyasining asosi sanaladi.

Ammo asar so‘ngida Garriga hammadan ko‘p yordam bergan va hatto Garri istiqboli uchun o‘zini qurbon qilgan inson Snegg ekanligi ayonlashadi. Damblorning o‘limi aslida rejaning bir qismi ekanligi, sog‘ligidagi zaiflik o‘limi muqarrarligini bilgan Garri anglagan haqiqat shu paytgacha faqatgina Damblor va Snegg o‘rtasidagi pinhoniyl rejaning asosi Voldemortga qarshi tuzilganligi hamda bu yo‘lda barchaning nafratiga Snegg sazovor bo‘lishi ko‘zda tutilganligi edi. Bolaning ham o‘limi muqarrarligi har ikkalasini birdek azoblardi hamda yettinchi jon tumor Garrining o‘zi ekanligi Damblor va Sneggni yanada xavotirga solardi. Ular bir narsaga mo‘jiza sodir bo‘lishiga umid qilishardi.

Garrining pokiza qalbi bilan bog‘lanuvchi samimiy rishtaga Lord Voldemortning majruh yuragi hech qachon bardosh bera olmaydi. Buni muzlagan po‘latga yopishgan til yoki olovda yonayotgan tanaga qiyoslash mumkin. Muallif uslubining eng mohirona qirradi, nazarimizda, professor Sneggni barcha qismlarda salbiyl qahramon sifatida ishonarli tasvirley olishi va eng so‘nggi yettinchi qismda o‘limidan keyingina “xotiralarni tiklash uskunasi” yordamida eng kuchli va matonatli ijobiy qahramonga aylantirishidadir. Jahon bolalar adabiyotida o‘ziga xos o‘rni va mavqeyiga ega bo‘lgan adiba J.K. Rouling ijodiy barkamolligi va bestseller yozuvchi maqomiga erishishi tijoriyl reklamalarning natijasi emas, aksincha muallifning tinimsiz mashaqqatli mehnati, izlanishlari va iste’dodi samarasida edi. “Garri Potter” haqidagi turkum romanlarining til va uslub masalalari okkazionalizm, matnlarga ilovalar, rasmiyl shakl yetakchiligi, til qoidalarining buzilishi, lotin va fransuz so‘zlarining qo‘llanilishi, matnning orfografik xususiyatlari hamda tinish belgilarining ahamiyati yuzasidan olib borilgan tahlillar natijasida adabiy an‘analarga sodiqlik va novatorlikning uyg‘unligi adiba ijodining muvaffaqiyati siri ekanligi ayon bo‘ldi.

Manbalar

1. Nasriddinov D. A. Fentezi genezisi va uning ilmiy talqini “Ilmiy axborotnoma” Samarqand – 2020, №6, 13 b
2. Rudnyov. V.P. Slovar kulturi XX veka. – Moskva. 1999. – S.169.
3. Meletinskiy Y. M. Mifiskazka. – M., 1998. – S. 291
4. Nasriddinov D. A. Fentezi genezisi va uning ilmiy talqini “Ilmiy axborotnoma” Samarqand – 2020, №6, 16 b.
5. Neelov Ye. Folklorniy intertekst russkoy fantastiki // [elektronnyy resurs]: <http://www.philolog.ru/filolog/uchebnik>. pdf. 05.04.2024.
6. Godshok V. Fantastika. Vikepediya. — URL: <http://mir.fantastics/articles/>
7. <https://www.lites.ru>



Research Science and
Innovation House